

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60710400 – Energetika muhandisligi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60710400 – Energetika muhandisligi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MELIQO'ZIYEV MIRKOMIL VOXIDJON O'G'LI

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: AZAMAT ABDYMOMUNOV

Jahon banki

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260011
Xulosa raqami	811
Xulosa sanasi	05.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Guvohnoma: MAS № 0000077, 11.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Energetika muhandisligi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60710400
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000077, 11.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60710400 – Energetika muhandisligi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60710400 – Energy Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60710400 – Энергетическая инженерия
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Muhandis-energetik (muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha "Energetika muhandisligi" ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi shakllantirilgan hamda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida faoliyat yuritadi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari aniq belgilangan bo'lib, istiqbolli rivojlantirish rejasi universitetning strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtirilgan. Energetika muhandisligi kabi texnik va strategik ahamiyatga ega yo'nalish uchun boshqaruvning aniq tartibga solingani hamda ichki sifat nazorati mexanizmlarining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki energetika sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ichki sifatni ta'minlash tizimida monitoring va baholash mexanizmlari, shuningdek, manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash tartiblari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular ta'lim sifatini muntazam nazorat qilish va takomillashtirish imkonini beradi. Demak, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, ular ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur institutsional asos yaratadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha ta'lim dasturi mazmunining asosiligi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, kasbiy standartlar hamda mehnat bozori ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, dastur maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalari o'zaro uzviy bog'langan. Ta'lim dasturini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish, kelishish va tasdiqlash jarayonlarining tizimli tashkil etilgani dastur mazmunining shaffof va kollegial yondashuv asosida shakllantirilganini ko'rsatadi. Energetika muhandisligi, xususan muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari yo'nalishi uchun ta'lim dasturi mazmunining zamonaviy texnologik tendensiyalar hamda

global energetika transformatsiyasi (energy transition) tamoyillari bilan uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Fanlarning fundamental muhandislik bloklaridan ixtisoslashgan energetika fanlariga izchil o'tishi talabalarning muhandislik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini ta'minlaydi. Demak, ta'lim dasturi mazmuni milliy standartlar hamda zamonaviy energetika sohasi ehtiyojlariga muvofiq, nazariy va amaliy komponentlar uyg'unligida tizimli shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. O'quv jarayonini tashkil etish hamda o'quv natijalarini baholash tizimi amaldagi Davlat ta'lim standartlari va ichki sifatni ta'minlash talablariga muvofiq shakllantirilgan. O'quv rejalari va fan dasturlari ish beruvchilar, soha mutaxassisleri, professor-o'qituvchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari bilan muvofiqlashtirilgan. Energetika muhandisligi yo'nalishi uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki muhandislik kompetensiyalari real texnologik jarayonlar va zamonaviy jihozlar bilan ishlash orqali shakllanadi. Energetika sohasi tashkilotlari vakillarining sillabuslarni ishlab chiqish jarayonidagi ishtiroki ta'lim mazmunini amaliy ehtiyojlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Baholash tizimining shaffofligini ta'minlovchi mexanizmlar hamda akademik halollikni ta'minlash tartiblarining mavjudligi ta'lim jarayonining ishonchliligi va xolisligini ta'minlaydi. Demak, o'quv jarayoni va baholash tizimi amaldagi standartlar talablariga muvofiq, natijaga yo'naltirilgan hamda amaliyot bilan uzviy bog'liq holda tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Talabalar faoliyatiga oid jarayonlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari hamda universitetning ichki me'yoriy hujjatlari asosida tashkil etilgan. Qabul mezonlari, talablari va tartiblari aniq belgilangan bo'lib, ular abituriyentlarga universitetning rasmiy veb-sayti, davlat platformalari, call-center va konsultatsiya xizmatlari orqali ochiq yetkaziladi. Qabul jarayonining ko'p kanalli va shaffof tashkil etilgani abituriyentlar uchun axborotdan teng va tezkor foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Talabalar harakatini, jumladan o'qishni ko'chirish, kursdan-kursga

o'tkazish, o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarning mavjudligi talabalarning ta'lim traektoriyasini huquqiy jihatdan himoya qiladi. Talabalarni akademik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining shakllantirilgani qulay ta'lim muhitini ta'minlaydi. Demak, talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi shaffof, adolatli hamda amaldagi normativ talablar asosida tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha inson resurslari salohiyati tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Inson resurslari tizimi ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgan hamda amaldagi normativ-huquqiy talablar asosida tashkil etilgan. Professor-o'qituvchilar tarkibi son va sifat jihatidan belgilangan talablarga mos bo'lib, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi 97,5 foizni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich kadrlar tarkibining barqarorligini hamda ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Energetika muhandisligi kabi texnik yo'nalish uchun ilmiy-pedagogik salohiyatning yuqori darajada shakllanganligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki muhandislik fanlarini o'qitish chuqur nazariy bilim, amaliy tajriba va zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan mutaxassislarni talab qiladi. Kadrlarni rivojlantirish, malaka oshirish va rag'batlantirish mexanizmlarining mavjudligi professor-o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish imkonini beradi. Demak, inson resurslari tizimining asosiy elementlari to'liq shakllantirilgan bo'lib, ular ta'lim dasturini barqaror va yuqori sifatda amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha moddiy-texnik ta'minot tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, laboratoriyalar, o'quv xonalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hamda elektron ta'lim resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi yetarli. Universitetda 65 ta laboratoriya xonasi, 35 ta kompyuter sinfi, internet tarmog'iga ulangan 1839 ta kompyuter, elektron kutubxona hamda HEMIS va LMS tizimlarining mavjudligi Energetika muhandisligi yo'nalishi uchun zarur bo'lgan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish imkonini beradi. Laboratoriya bazasining kengligi talabalarning muhandislik kompetensiyalarini real jihozlar va texnologik jarayonlar bilan ishlash orqali

shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa energetika sohasi uchun alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy o'quv infratuzilmasi va raqamli ta'lim resurslari o'quv jarayonini axborot va texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Demak, moddiy-texnik ta'minot tizimining asosiy elementlari to'liq shakllantirilgan bo'lib, ular mazkur yo'nalish bo'yicha sifatli muhandislik ta'limini tashkil etish hamda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ishonchli asos yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarning mazmunini boyitish hamda dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Manfaatdor tomonlar (energetika sohasi tashkilotlari) bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va hujjatlashtirish tavsiya etiladi.
- ✓ Zamonaviy laboratoriya uskunalari va muqobil energiya bo'yicha o'quv-metodik resurslarni muntazam yangilab borish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Indikatorlar bo'yicha hujjatlar mazmunini boyitish va dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish.
- ✓ Energetika sohasi tashkilotlari bilan hamkorlik va amaliyot bazalarini kengaytirib, hujjatlashtirish.
- ✓ Muqobil va qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi zamonaviy laboratoriya uskunalari va resurslarni yangilab borish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini va xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti" davlat muassasasida 60710400 – "Energetika muhandisligi" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, yuqori malakali kadrlar tarkibi (asosiy shtatdagi professor-

o'qituvchilar ulushi 97,5 %), Davlat ta'lim standartlari va kasbiy standartlar asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturi hamda keng laboratoriya bazasi (65 ta laboratoriya, 35 ta kompyuter sinfi) shakllantirilgan. Tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan mezonlarga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar — hujjatlar mazmunini boyitish va energetika sohasi tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish — dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

